O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
O‘ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI
O‘ZBEK MUMTOZ ADABIYOTI TARIXI BO’LIMI

PORSO SHAMSIYEV
tavalludining 125 yilligiga bag‘ishlangan

respublika ilmiy anjumani materiallari

2022-yil 27-aprel

II KITOB

“Adast poligraf”
TOSHKENT -2022

Porso Shamsiyev tavalludining 125 yilligiga bag‘ishlangan respublika ilmiy anjuman materiallari to‘plami / – Toshkent. – 2022. – 144 b

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti O‘zbek mumtoz adabiyoti tarixi bo’limi hamda Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi hamkorligida 2022-yil 27-aprel kuni o‘tkazilgan yirik matnshunos va manbashunos olim, fan arbobi Porso Shamsiyev tavalludining 125 yilligiga bag‘ishlangan respublika ilmiy anjumani materiallaridan tashkil topgan.

To‘plamdan filolog mutaxassislar, jumladan, ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari, doktorantlar, tayanch doktorantlar, magistratura va bakalavriat bosqichi talabalari foydalanishlari mumkin.

(Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflarning o‘zlari mas’uldirlar)

Tahrir hay’ati:
Maqsud Asadov, f.f.d., bo‘lim mudiri
Ibrohim Haqqulov, f.f.d., bosh ilmiy hodim
Qodirjon Ergashev, f.f.n., katta ilmiy xodim
Sayfiddin Rafiddinov, f.f.n., katta ilmiy xodim
Burobiya Rajabova, f.f.n., yetakchi ilmiy xodim
Sirdaryoxon O‘tanova, f.f.n., katta ilmiy xodim
Zulayho Rahmonova, f.f.b.f.d, katta ilmiy xodim

To‘plab, nashrga tayyorlovchilar:
Nasiba Jo‘raqulova
Dilmurod Asqarov

5. Eshonqulov H. Alisher Navoiy g‘azaliyotida ishq poetikasining qiyosiy-tipologik tahlili(filologiya fanlari doktori Dsc avtoreferati), - Samarqand, 2020, 77 b.
6. Ҳайитметов А. Навоий лирикаси.(тўлдирилган ва тузатилган иккинчи нашр) –Тошкент: Ўзбекистон, 2015.- 323 б.
7. Razzoqov A. Alisher Navoiy she’riyatida ilm va ma’rifat talqini(filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori PhD dissertatsiyasi), - Qarshi, 2019.
8. Шамсиев П. Навоий асарлари луғати(Алишер Навоий асарларининг ўн беш томлигига илова) – Тошкент: Ғ.Ғулом, 1972.- 781 б.
9. Sa’diy Sheroziy. Hikmatga to’la olam. wwwziyouz.com kutubxonasi. 139 b.

LIRIK QAHRAMON, MOHIYAT HAMDA IFODA UYG‘UNLIGI

Nasiba JO‘RAQULOVA,
O‘zR FA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori
instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ma’lumki, er, eran obrazi turkiy adabiyotda mukammal, yetuk shaxs siymosini tamsil etadi. Mazkur maqolada Amir Sayid Qosimiy, hazrat Navoiy, Haydar Xorazmiy ijodidagi bu obrazlarning yakdil xususiyatlariga e’tibor qaratildi. Shuningdek, badiiy parchalarning bu istilohlar qo‘llanilgan o‘rinlari mazmunan tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: er, eran, tolib, matlub, faqir, darvesh, avliyo, orif, jo‘mard, murshid, himmat, karam.

Аннотация

Известно, что образ эр, эране представляет образ совершенного, зрелого человека в тюркской литературе. Данная статья посвящена общим чертам этих образов в произведениях Амира Сайида Касими, Хазрата Навои, Хайдара Хорезми. Также анализируется контекст, в котором эти термины используются в отрывках.

Ключевые слова: эр, эран, талиб, матлуб, факир, дервиш, святой, ариф, муршид, химмат, карам.

Annotation

It is known that the image of the land in Iran represents the image of a perfect, mature person in Turkish literature. This article focuses on the common features of these images in the works of Amir Sayyid Qasimi, Hazrat Navoi, Haydar Khorezmi. The context in which the terms are used in the passages is also analyzed.

Keywords: er, eran, talib, matlub, faqir, dervish, saint, arif, jomard, murshid, himmat, karam.

Adabiyot nafsoniy istaklardan bir nafas tin olib, tafakkur va tahayyul ummonidan bahramand bo‘lish ne’matini insoniyatga hadya qiluvchi mo‘jizaviy kuch. Erksevar shoir va adabiyotshunos Cho‘lpon ham: “ Hech to‘xtamasdan harakat qilib turg‘on vujudimizga, tanimizga suv-havo ne qadar zarur bo‘lsa, maishat yo‘lida har xil qora kirlar ila kirlangan ruhimiz uchun ham shul qadar adabiyot kerakdir”[10,36],- degan edi. Adabiyot buyuk yaratiq-odamzod qalbiga oyna tutgan, insoniyatga komillik yo‘lini ko‘rsatgan umid va taskin olami. Yo‘qsa, hazrat Navoiy:

Barchadin ashrafki ul inson erur,

Kim kamolida xirad hayron erur[3,221],-

deb yozmagan bo‘lardi. Adabiyotning asosiy vazifasi komil inson tarbiyasi ekan, unda odamiylikda o‘rnak bo‘ladigan qahramonlar obrazini yaratish muhim hisoblanadi. Ideal obraz yaratish tajribasida mumtoz adabiyot namunalari peshqadamlik qiladi, boisi bu davr ijodkorlarining aksariyati benazir zakovat sohibi ekanliklari bilan bir qatorda iymon-e’tiqodda sobitqadam valiy insonlar ham edilar. Adabiyotimiz tarixida komil inson siymosi bir qancha nomlar bilan badiiy ijodda o‘z aksini topgan: zohid, oshiq, rind, orif, g‘arib, faqir. Ta’kidlash joizki, turkiy adabiyotda aks etgan mukammal axloqli inson obrazlarining eng birinchilaridan bo‘lgan, milliy ruhiyat to‘la-to‘kis singdirilgan obraz er va eranlardir.

Amir Sayid Qosimiy, Haydar Xorazmiy, Sayfi Saroiy, Atoiy, Mavlono Lutfiy ijodida diniy-falsafiy qarashlar, badiiy ramz, timsollar, ma’no va obraz yakdilligi e’tirofga molik. Bu davrda ham er, eran obrazi sohibvaqt, porso, taqvodor kishilarning nomiga aylandiki, adabiy parchalarda bu maqomdagilar farishta suratidagi jonlar ekanligi e’tirof qilinadi.

“Nasoyim ul-muhabbat”, “Majolis un-nafois” tazkiralarida alohida ehtirom bilan tilga olingan so‘fiy shoir Sayid Qosim Tabriziy ijodida eranlarga bag‘ishlangan qasida alohida o‘rin egallaydi. Sayid Qosimiy valiy zot edi, shu bois uning ijodida eranlik sifatlari yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi:

Ki ermen degan etmas xudfurushiy,
Qo‘lidan kelsa aylar aybpo‘shiy.
Bu yo‘lda jonu boshingni fido qil,
Eranlar himmatidin iltijo qil.
Er uldur ich ko‘zini boz qilsa,
Baloyu dard birla soz qilsa[5,165].

Aytishlaricha, ilmda uch qadam bo‘lar ekan. Kim bir qadam ildamlasa, kibrga berilarkan, ikkinchi qadamni qo‘ygan kishi kamtar, xokisor bo‘lib qolar ekan, uchinchi bosqichga ko‘tarilganidan so‘ng esa kishi hech narsani bilmasligini tushunib yetarkan. Xudfurush o‘zini bozorga solib maqtanayotgan nodon, ilm ostonasidan bir qadam odimlab, hamma narsani bilib bo‘ldim, deb jar soluvchi kimsadir. Erlik da’vosidagi inson aybpo‘sh, ya’ni sir saqlovchi bo‘lishi shart, bu darajaga erishish uchun esa inson mushohada manziliga yetgan bo‘lishi kerak. Sir Tasavvufda Alloh bilan qul orasidagi yashirin haqiqat, til bilan aytilmas ma’no. Sir inson vujudidagi ruhga o‘xshash latiflik. Ruh qalbdan ustun bo‘lganidek, sir ruhdan ustun mavqega ega. Solik nafsi mutmainna va nafsi roziya martabasiga yetgach, jabarut va lohut olamida valiylik maqomiga loyiq bo‘ladi. Valiylikning to‘rt sifatidan ikkitasi sir haqida, ya’ni O‘zi bilan Parvardigor orasidagi sirni saqlash, karomatni yashirib, riyoga yo‘l qo‘ymaslik. Demak, erlik yo‘lida sirga yetishmoq umidi bor. Ich ko‘zini boz qilmoq misrasi botin nazarini ochib qaramoq ma’nosida kelmoqda. Botin- ko‘ngil, qalb, ruhiyat, dil, basirat, insonning ichki

ma’naviy olami, botin ko‘zi- siyrat ko‘zi, qalb ko‘zi. Ma’lumki, tasavvufda ko‘ngil pokligiga, ma’naviy tarbiyaga alohida e’tibor qaratiladi. Er kishi ruh tozaligiga erishishi lozim ekan, bu balo-yu dard bilan amalga oshadigan jarayonmi? Axir, ichki dard, surunkali bezovtalik inson ko‘nglini xiralashtirib, maishiy turmush tashvishlari bilan andarmon qilib qo‘yadiku?! Tasavvufda g‘am-g‘ussa, qayg‘u, mahzunlik, huzunning uch darajasi ajratiladi: 1. Avom huzuni- toat va xizmatdagi qusurlar, g‘aflatda kechgan umrdan qayg‘u chekish; 2. Xavos huzuni- qalbning Allohdan g‘aflatda qolish va mosuvoga muhabbatidan g‘ussaga berilish; 3. Axos huzuni- janobi Payg‘ambarning ummati, olim, ulamoning xalq islohini o‘ylab tortadigan qayg‘u-hasratlari[9]. So‘fiylarga ko‘ra, huzunsiz yurak xarob va qashshoqdir. Fuzayl ibn Iyoz vafot etganlarida bir shayx “Bugun yer yuzidan huzun ketdi”,- degan ekanlar. Xoja Ubaydulloh Ahrori Valiy “Darveshga hech narsa xomushlig‘din yaxshi ermas. Zeroki, nimaiki Xudodin o‘zgadir, so‘zlamoqg‘a arzimas va har nimakim Xudoning so‘zidur iborotg‘a kelmas va so‘zlab yetkurib bo‘lmas”[6,342],- degan edilar. Demak, insonning mushohada maqomiga ko‘ra dard deb hisoblaydigan iztiroblari mavjud. Omonat berilgan umr yo‘llarida faqatgina bir g‘ussa borki, mangulikka dahldor, ko‘ngil xotirjamligi-yu o‘zlikni anglash mohiyati bilan egizakdir. U Yaratganni tanish va Unga yaqinlashish yo‘lidagi o‘z amallaridan qoniqmaslik qayg‘usidir. Eranlar bu olamda har qanday qaramlikdan uzila olgan, ozodlikni Haq taologa itoatda, deb hisoblaydigan faqirlar ekan, ularning g‘am-hasrati faqatgina ilohiy ma’rifatga erishish umidi bilan bog‘liqligi tayindir.

Sayid Qosimiy er, eran obrazini alohida mehr-muhabbat, cheksiz samimiyat bilan nazmga soldi. “Eranlar botinidin iltijo qil, Bu yo‘lda Qosimiy joning fido qil”,- deya valiylarga cheksiz ehtirom bajo aylagan so‘fiy shoir eranlarga bag‘ishlangan qasidasida talab yo‘liga kirgan tolibning har vodiydagi maqom holini erning ma’lum darajalari sifatida ifodalaydi. Unga ko‘ra, tariqatdagi solik har bir bosqichda erlik xislatlariga ega bo‘lib boradi:

Gahi tolib bo‘lurlar, goh matlub,
Gahi oshiq bo‘lurlar, goh mahbub.

Gahi sham'u, gahi parvonadurlar,
Gahi oqil, gahi devonadurlar.
Gahi sulton erurlar, goh darvesh,
Gahi xurram bo'lurlar, goh dilresh.
Ikki dunyosidin ozodadurlar,
Talabning yo'lida uftodadurlar[5,171].

Ma'lumki, tariqatga kirmoqchi bo'lgan, ammo hanuz qabul qilinmagan talab sohiblari tolib deyiladi. Matlub - talab etilgan, orzu qilingan ma'nosini anglatadi. Demak, eranlar toliblikni ixtiyor etgan murid va shu bilan birga tariqatga eng munosib talab qilingan shogird ma'nosida kelmoqda. Tariqatda muridning har bir mujohadasi oqibatida bir hol zuhur etishi kerak bo'ladi. Ya'ni murid mujohada va ibodat orqali bir maqomdan boshqa maqomga ko'tariladi, nihoyat tavhid va ma'rifat martabasiga erishadi. Murid maqomlarda ilgarilagan sayin unda ba'zi hollar va sifatlar paydo bo'ladi. Qasidada eranlarning ana shu hollari badiiy ifodasini topadi. Eranlar ba'zan nuri ilohiy quyoshi yanglig' ziyo taratib, ma'shuqqa aylanadilar. Ma'shuq tasavvufiy adabiyotda murshidi komil ma'nosida ham keladi. Gohida esa ular parvonaga aylanadilar, ya'ni oshiq bo'lib, tarkidunyo qiladilar va dard-iztirob, g'am-kadar ichida bedor nola chekadilar. Tasavvufiy maslakda ishq keng miqyosdagi tushuncha hisoblanadi. Ishq - sevgi-muhabbatning eng mukammal ko'rinishi va baland darajasi. Agar ishq bo'lmasa, inson hech bir ishda ilgarilay olmaydi. Tiriklikning mazmuni, yaralish mohiyati ishqdan oziqlanadi. Eranlar pok oshiqlar, shu sabab ular darveshga aylanadilar. Darvesh-nafsoniy istaklardan yuz burib, dunyoviy lazzatlardan parhez qiluvchi haqiqat yo'liga kirgan Haq oshig'i. Yassaviy "Faqrnoma"da ta'kidlaydiki: "...havoyi havasni tark qilib, nafsni mujohada yoyi birlan sindurub o'ziga mute' qilib va qanotni pesha qilib, qazosig'a rozi bo'lib, balosig'a sabr qilib, ne'matig'a shukr qilib, aytgan risolag'a amal qilib, Xudoyi taoloning amrlarini bajo keltursa, darveshlik oti anga musallam bo'lur"[4,86]. Hazrat Navoiy "Mahbub ul-qulub" asarining "Darveshlar zikrida" faslida darveshlarni eranlar deb ataydi va ularni malomatiylar sifatida namoyon qiladi. Tasavvufiy adabiyotda darvesh, eran

so‘zlarini ma’nodosh sifatida qo‘llash tez-tez uchrab turadi. So‘fiy shoir Yunus Emro ijodida ham bu holni kuzatish mumkin:

Haqir ko‘rma kimsani, hyech bir kimsa bo‘sh emas.
Haqirlik ila boqmoq, Eranlarga xush emas.
Ko‘ngilni darvesh ayla, hamisha do‘stga boyla.
Ishq eri darvesh erur, darvesh ichi bo‘sh emas[7,153].

Valiy shoir Sayid Qosimiy eranning darveshlik maqomidagi zot ekanini ta’kidlar ekan, ularni ikki dunyo havasidan ham ozod bo‘lganlar, deb aytadi. Eranlar talab yo‘lidagi oshiqlar, barcha istaklariga qo‘l siltagan hur zotlar, ilohiy ma’rifatga yetgan oriflar, kashfu karomat ato etilgan avliyolardir. “Tasavvufning bir g‘oyasi Rasullohdan keyin uning ruhiy rahbarligini davom ettiradigan haqiqiy vorislar, ya’ni avliyo va so‘fiylardan tarkib topgan irshod naslini voyaga yetkazmoq”[8,20] ekan, Eran chin ma’noda shu vazifani zimmasiga olgan murshid, ruhiy rahbarlardir. Sayid Qosimiy bag‘ishlovida toliblikdan piri soniy darajasiga yetgan murshid obrazi Eran nomi bilan ifodalanadi. Eranlar talab yo‘lida maqsadi hosil bo‘lgan jo‘mardlar, kelajak avlod ma’naviyatini yuksaltirish mas’uliyatini zimmasiga olgan mo‘tabar zotlardir. Sayid Qosimiy eranlar yo‘lini izlash orzusida iltijo qiladi, ular himmatini istab, riyozat chekadi va komillik sari borish tiriklik mazmuni ekanligini ta’kidlab, “Eranlar botinidin qil gadoyi”, deya borini bu talabga fido qilishga tayyor turadi. Sayid Qosimiy oshiq, darvesh, faqir, valiy, murshid va shayxlarni eran nomi bilan yakdillashtiradi. Eranlar himmati avom uchun saodat kaliti, ma’rifati nurli istiqbol yo‘lidir. Erlar shunday murabbiyki, ular qo‘lida mis zarga, qora tuproq “toji sar”ga aylanadi. Er va Eranlarni ma’naviy-ma’rifiy karomat sohiblari sifatida tasvirlash boshqa shoirlar ijodida ham ko‘zga tashlanadi. “Majolis un-nafois” tazkirasida Haydar Xorazmiyning ham shu ma’nodagi masnaviysi keltirilgan:

Himmat elidur yadi baydo degan,
Er nafasidur dami Iso degan[1,412].

“Himmatsiz kishi er sonida emas, ruhsiz badanni kishi tirik demas”[2,80],- deydi hazrat Navoiy. Eranlar karam sohiblari, o‘zlari baqoga yo‘l olsa-da, himmati bilan tillarda qoluvchi insonlar. Karam birovning og‘irini yengil qilmoq va bu

xizmatini aslo minnat qilmaslik. Insonda karam va himmatning jam' bo‘lishi juda noyob hodisa, sababi kishilarning hech bir minnatsiz yaxshilik qilishi mushkul masaladir. Odamzod tabiatan maqtanishga moyil, qilgan ishini kimdir ko‘rib, e'tirof etishini istaydi, bu ham nafs qutqusi. Eranlar karam va himmatda peshqadam zotlarki, har bir amalida hayr-ehson yashirin. Ularda kechagi kun nadomati, bugunning tahlikasi va kelajak xavf-xataridan tashvishlanish yo‘q. Eranlar xalq koriga yarash uchun mehnat qiladigan yurt fidoyilari. Hazrat Navoiy himmatli erlardan olam ahli uchun yuz ming sharaf va fayzi futuh yetishini aytadi. Mutafakkir shoir Haydar Xorazmiy ham eran siymosida el-yurt og‘irini yengil qiladigan saxovat ahlini ko‘radi. Zotan komillikning eng yuksak darajasi xalq koriga yarash, millatning ma'rifatli bo‘lishiga hissa qo‘shishdir.

Bu davr adabiyotida er, eran obrazi eng yorqin timsollardan biriga aylandi. Amir Temurning nabirasi Abubakr Mirzo she'riyatida er yengilmas bahodir siymosida gavdalanadi. "Majolis un-nafois"da bahodirligi va qilichbozligi bilan bir qatorda nozik nazmi ham borligi ta'kidlangan Abubakr Mirzo tuyuq janrida erlik ta'rifini keltiradi:

Er kerak o‘rtansa yonsa yolina,
Yora deb yotsa otining yolina.
It o‘lumi birla o‘lsa yaxshiroq,
Er otonib dushmanig‘a yolina[1,412].

Birinchi misrada yolina- olov, alanga ma'nosida kelgan. Er shunday mardki, o‘t-alangada yonib, jarohat olganda, madad so‘rab otining yoliga yotadi, aslo dushmanidan iltijo qilmaydi, jonini omon saqlash uchun, uning poyiga yiqilmaydi. Er atalganning g‘animga taslim bo‘lishi itdek o‘lim topishdan ham ayanchli qismat. Er ham jismonan, ham ma'nan mukammal shaxs, uning uchun g‘urur, oriyat tuyg‘ulari har narsadan ustun, u sharafli nomiga dog‘ tushirmaydi. Tuyuqda ot erning jon yo‘ldoshi timsolida keladi. Bunday sifatlash xalq dostonlaridagi syujetni esga soladi. Alpomish quduqdagi asirlik hayotida hatto do‘stining yordamidan ham voz kechgan edi. Qachondir seni qutqarganman, deb yuzimga solsa, bu isnodni ko‘tara olmayman deb, arqonni kesgan edi. Boychibor madadi

bilan quduqdan chiqqan Alpomish uchun nafaqat dushmaniga, hatto do‘stiga ham yukinish mardning ishi emasdek tuyuladi. O‘zbek adabiyotida Er obrazi tom ma’noda jasur o‘g‘lonlar siymosini gavdalantirgan. Bu obraz vositasida ijod ahli o‘z orzu-umidlari, qadriyatlari mujassamlashgan qahramon siymosini yaratgan. Aytish kerakki, Er va Eranlik xislatlari, ayniqsa bugungi yoshlar tarbiyasi uchun nihoyatda ibratli. Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul ta’rifi bilan aytganda: “Eranlarning ma’naviy-axloqiy harakati va holatlari odamni xomlik, g‘ofillik hamda katta-kichik gumrohliklardan qutqaradi”[11]. Biz yosh avlod ongiga, avvalo, jasorat, mardlik, O‘zidan o‘zgaga muhtoj bo‘lmaslik tuyg‘ularini singdira olsak, o‘ylaymanki, fe’li qusurlik, maddohlik illatlariga, yengil-yelpi hayot kechirish fojeasiga biroz chegara qo‘ygan bo‘lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alisher Navoiy. TAT. Majolis un-nafois. Nashrga tayyorlovchilar: I. Haqqulov va b. Mas’ul muharrir: S. Rafiddinov. -Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
2. Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami. Mahbub ul-qulub. Tahrir hay’ati: I. Sulton va b. Mas’ul muharrir: M. Mirzaahmedova. -Toshkent: Fan, 1998.
3. Alisher Navoiy. Lison ut-tayr. -Toshkent: Adabiyot va san’at nashriyoti, 1991.
4. Abdurahmon Go‘zal. Yassaviy “Faqrnoma”si. -Toshkent: “Navro‘z”, 2014.
5. Sayid Qosimiy. Haqiqatnoma. Muborak maktublar. Nashrga tayyorlovchilar: M. Abduvohidova va b. -T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1987.
6. Xoja Ubaydulloh Ahror. Tabarruk risolalar. Nashrga tayyorlovchi va tarjimonlar: Mahmud Hasaniy va b. Mas’ul muharrir: Bahrom Abduhalimov. - Toshkent: Adolat, 2004.
7. Yunus Emro. Nechun yig‘larsen, ey bulbul? Jamol Kamol tarjimasi. - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018.
8. Usmon Turar. Tasavvuf tarixi. Tarjimon: Nodirxon Hasan. -Toshkent: Istiqlol, 1999.
9. Ibrohim Chori. Tasavvuf lug‘ati. Tafakkur, № 3-4, 1997, № 1-2, 1998.
10. Cho‘lpon. Adabiyot nadir (Adabiy-tanqidiy maqolalar, Cho‘lpon haqida xotiralar). To‘plovchi va izoh mualliflari: D.Quronov, Zamira Eshonova, U.Sultonov. - Toshkent: Cho‘lpon, 1994.
11. www.kh-davron.uz. Haqqulov I. Navoiy she’riyatida Er va Eran obrazi. 22.03.2019.

MUNDARIJA

MUMTOZ ADABIYOT, ADABIYOTSHUNOSLIK

Maqsud Asadov. “Maoniy ahlining sohibqironi” xususida…….....3

Usmon Qobilov. O‘zbek adabiyotida me’roj mavzusi va ma’naviy bedorlik talqini……..…...8

Zebo Qobilova, Namuna Tursunova. Muqimiyning Amiriyga bir tatabbusi xususida ……..…13

Zebo Qobilova, Musharraf Imomaliyeva. Amiriyning orifona g‘azallari……..…..…..…20

Bəxtiyat Məmmədov. Zahirəddin Məhəmməd Babur yaradıcılığı ümumtürk mədəniyyətinin nadir hadisəsi kimi ……..…..26

Dilrabo Kazakbayeva. “Noma’lum muallifning” tarji’bandi…….…..…....32

Ilyos Ismoilov. “Saddi Iskandariy” dostonida himmatning poetik talqini..……..…43

Sanobar Abdurahmanova, Rayhonoy G‘oyibboyeva. “Holoti pahlavon Muhammad” asaridagi she’rlarning mavzu ko‘lami…….…..…....49

Qutbiddin Dehqonov. “Alkofiya” va uning ba’zi qo‘lyozmalari tavsifi…….....59

Ulug‘bek Sanaqulov. Alisher Navoiy she’rıyatida Farhod va Majnun timsollari talqini…….....65

Nasiba Jo‘raqulova. Lirik qahramon, mohiyat hamda ifoda uyg‘unligi…….....71

Yulduz Abdulhakimova. Alisher Navoiy va Muhammad Fuzuliy “Layli va Majnun”: dostonlar syujeti bilan bog‘liq mushtarak va farqli jihatlar.....79

Shahnoza Jumanova. Mumtoz adabiyotda peyzaj unsurlari……..…...87

Musharraf Imomaliyeva. Amiriy ijodida Xizr obrazining badiiy vazifalari…….....94

Nilufar Oymatova. Umumta’lim maktablarida o‘quvchilarni Alisher Navoiy asarlari matnini tahlil va talqin qilishga o‘rgatishning zamonaviy usullari…..…103

Tozagul Dusanova. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asaridagi fardlarning badiiyati…….110

Lochinbek Ahmadaliyev. “Tazkirai Qayyumiy” Amiriy fiqrasi (№ 40) dagi she’rlarning matniy-qiyosiy tadqiqi.....117
Aziza Omonboyeva. Lison ut-tayrda zuhd maqomi talqini.....123
Munisa Matkarimova. Tavba – komillik yo‘lidagi dastlabki qadam sifatida....130
Sarvinoz Axmadqulova. “Farhod va Shirin” dostonida Mehinbonu obrazi talqini.....137